

BADIIY ASARLAR MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna

*Namangan davlat universiteti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotning bola shaxsi va dunyoqarashida, xususan, bolaning kognitiv qobiliyatlarining rivojlanishidagi tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti, ma'naviy-ruhiy, estetik, ekologik, jismoniy rivojlantirish, nutq o'stirish, kognitiv qobiliyat, kognitiv vazifa.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье рассматривается роль художественной литературы в личности и мировоззрении ребенка, в частности, в развитии познавательных способностей ребенка.

Ключевые слова: художественная литература, детская литература, духовно-духовное, эстетическое, экологическое, физическое развитие, развитие речи, познавательные способности, познавательная задача.

ARTWORKS AS A MEANS OF DEVELOPING THE COGNITIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: This article will talk about the role of fiction in the personality and worldview of the child, in particular, in the development of the child's cognitive abilities.

Keywords: fiction, children's literature, spiritual-mental, aesthetic, environmental, physical development, speech cultivation, cognitive ability, cognitive task.

KIRISH

Badiiy asar insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, bilim manbayidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti hisoblanadi. Uni qadrlash, hurmat qilish asrab-avaylashimiz lozim. Kitob o'qish, uning mazmunini anglab yetish, unga singdirilgan ma'no-mazmunni qalban tuyish va bu orqali ma'nan ozuqaga ega bo'lishdir. Kitobni mutolaa qiluvchi har qanday inson yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lishi mumkin.

Jamiyatimizda bugungi kunda kitobxonlik masalasiga katta e'tibor berilyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,

kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori bunga yaqqol misol bo'ladi. Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ularning bo'limlarida qarorda belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar asosida rejali va maqsadli ishlar yo'lga qoyildi.

Ayniqsa, mamlakatimiz bo'ylab "Yosh kitobxon oila", "Yosh kitobxon" tanlovlarining yo'lga qo'yilishi va g'olib kitobxonlar turli sovg'alar bilan taqdirlanishi bunga misol bo'la oladi.

Xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun, albatta, oilada va maktabgacha talim tashkilotlarda bolalarni kitobga mehr uyg'otish uni sevishga asrab-avaylashga o'rgatishimiz lozim. Bunda, ayniqsa, oilada bobo-buvisi, ota-onasining maktabgacha talim tashkilotlarida esa tarbiyachi va pedagoglarning o'rni kattadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy asarlar ko'plab mualliflarning fikriga ko'ra, bolalarni tushunishlari mumkin bo'lgan ijtimoiy hayot hodisalariga hissiy munosabatda bo'lishga o'rgatadi; asar qahramonlari orqali boshqalarning quvonchi va qayg'usiga hamdard bo'lish istagi shakllanadi, shuningdek, dunyoni yaxshilash uchun birgalikda harakat qilish zarurati paydo bo'ladi.

Badiiy asarlar maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ma'naviy-ruhiy, estetik, ekologik, jismoniy rivojlantirishga ta'siri masalasi bir qator pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarda atroflicha o'rganilgan. Shu bilan birga, bir qator tadqiqotchilar tomonidan mazkur muammo yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, nazariyotchi D.Abdurahimovanning tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish tizimini takomillashtirishga oid izlanishlar aks etgan bo'lib, unda bolalar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi janrlarining tutgan o'rni pedagogik-psixologik jihatdan asoslab

berilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida Event-texnologiyasini qo'llashning metodik tizimi takomillashtirilgan. Bu o'z navbatida xalq og'zaki ijodi bolalar adabiyotining eng boy va sarmahsul qismi ekanligini, mazkur manbalarni yosh avlodga yetkazishda zamonaviy texnologiyalar samarali vosita ekanligini to'liq isbotidir.

Tadqiqotchi G.Berdaliyeva ham o'z ilmiy izlanishlarida aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarining ahamiyatini keng tahlil etgan. Shu bilan birga, G.Berdaliyeva tadqiqotida nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarini amalga oshirishdagi qo'llaniluvchi metodlarni takomillashtirish, uning mavjud hozirgi holatini tanqidiy tahlil qilish yuzasidan ko'plab fikrlar bildirilgan.

Q.Husanboyeva tomonidan esa aynan, mazkur sohada faoliyat yurituvchi nazariyotchilar, amaliyotchi tarbiyachilar, talabalar uchun maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasiga doir alohida didaktik ta'minot yaratdi. Mazkur darslikda maktabgacha ta'limdagi har bir yosh guruhlarida tashkil etiluvchi badiiy adabiyot faoliyati uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy ko'rsatmalar, tavsiyalar hamda badiiy matnning bola rivojlanishidagi ahamiyati keng tahlil etilgan. Badiiy matnlar bolaning rivojlanishini ta'minlovchi asosiy vasita sifatida qaralib, ular bilan tanishtirishda tarbiyachi bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda sistematik tarzda olib borishi zarurligi to'g'risida maxsus ko'rsatmalar berilgan.

M.Umarovning izlanishlarida esa maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning sog'lom, rivojlangan shaxsiyatini shakllantirishni ta'minlash, o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otish, ya'ni tizimli o'rganishga qaratilgan tadqiqot olib borgan. Uning tadqiqotlarida, asosan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining shakllanayotgan yangi tarmoqlari bo'lgan "uy bolalar bog'chasi" (oilaviy ta'lim turlaridan biri sifatida), shuningdek, fermer xo'jaligi egasi bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasi — boshlang'ich maktab majmualari faoliyati keng tahlil etilgan. Shu bilan birga muassasalarda o'rgatilayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarning kompleks ravishda rivojlanishini

ta'minlovchi, ma'naviy, axloqiy va intellektual salohiyatini oshiruvchi xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligi kabi bilimlarning mazkur ta'lim bosqichini samaradorligini ta'minlovchi asos ekanligi tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotda ifoda etilayotgan nazariy va amaliy manbalar aynan bugungi ta'lim jarayonini zamon talablari bilan hamohang ravishda rivojlantirishni maqsad qilganligini anglash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muammoga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar, tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kitob bolaning aqliy, ma'naviy-estetik jihatdan boyishi uning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishi uchun yordam beradi. Kitob – axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi, bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli, badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim umumiy ta'lim dasturining tuzilishiga davlat talablarini joriy etish mutlaqo yangi sharoitlarda rivojlanmoqda, ular o'rganuvchilarning yosh imkoniyatlari va xususiyatlariga muvofiq ta'lim yo'nalishlarini integratsiyalashuviga asoslangandir.

Muloqot jamiyat mavjudligining asosini belgilovchi va inson hayotining zaruriy sharti sifatida barcha fan sohalari vakillarining qiziqishlariga sabab bo'lgan. Shu munosabat bilan ushbu sohadagi ilmiy tadqiqot natijalariga qiziqqan har bir izlanuvchi muloqot jarayonini o'rganish, tushunish bo'yicha nuqtayi nazarlar, jihatlar, yondashuvlarning qiyosiy tahliliga murojaat qiladi.

Badiiy asarlar vositasida ta'lim oluvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. B.T.Qodirova ham badiiy asarlar vositasida o'quvchilarda tarixiy ongni shakllantirish masalasida tadqiqot olib borgan va mazkur adabiyotlarni ikki turga ajratgan:

- a) tarixiy mavzudagi badiiy asar namunalari;

b) tarixiy bo'lmagan mavzudagi badiiy asar namunalari.

Tarixiy mavzudagi badiiy asar namunalarini quyidagicha tasniflagan:

1) tarixiy shaxslar (ajdodlarmiz) haqidagi matnlar;

2) milliy an'analarimiz va bayramlarimiz (Qovun sayli, Navro'z, Hosil bayrami, Mustaqillik bayramlari) aks etgan matnlar;

3) tarixiylik aks etgan xalq og'zaki ijodi namunalari. Tarixiy shaxslar (ajdodlarimiz) haqidagi matnlar bilan ishlashda "Besh bosqich" texnologiyasi ishlab chiqilgan. Tarixiy mavzudagi badiiy asar namunalarining tasnifida tarixiylik aks etgan xalq og'zaki ijodi namunalari keltirilgan. Har qanday folklor asarida tarixiy voqelik, ajdodlar tajribasi va ibrati, shuningdek, ma'naviy olami aks etib turadi hamda ertaklar, rivoyatlar, xalq qo'shiqlari, topishmoq va maqollar bolalarning yoshidan kelib chiqib tanlanib, darsliklarga kiritiladi. "Badiiy adabiyot", "Kitobxonlik" kabi to'garaklarni tashkil etilishi va unda bolalar tomonidan turli mavzulardagi badiiy asarlarni o'rganilishi ta'limda samaradorlikni ta'minlashi atroflicha tahlil etilgan. Oilalarda tashkil etiluvchi kichik kutubxonalar va ota-onalar tomonidan o'z farzandlari uchun sovg'a qilingan badiiy asarlar jamlanmalari bolalarni dunyoqarashini rivojlantirishdagi asosiy poydevor ekanligi yoritib berilgan.

Badiiy adabiyotning vazifalaridan biri kognitiv vazifa hisoblanadi. Kognitiv vazifa badiiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari tufayli baholovchi bilan uzviy bog'liqdir. Bashoratlash oraliq o'rinni egallaydi, chunki u nafaqat bilish, balki natija yo'nalishi bilan ham shartlangan. O'z navbatida, baholay olish vazifasi bolani ilhomlantiruvchiga aylanadi, chunki bolalarda badiiy asar mazmunini baholashda his-tuyg'ular alohida rol o'ynaydi. Badiiy asar muayyan his-tuyg'ularni uyg'otish, g'oyaviy va hissiy mazmunni yetkazadi. Badiiy adabiyotning ilhomlantiruvchi kuchi hayotning o'zi uyg'otadigan tajribalardan kam bo'lmagan haqiqiy tajribalarni uyg'otadi. Badiiy adabiyotning chuqur his-tuyg'ular manbasi sifatida harakat qilish qobiliyati uning kompetensiyaviy vazifasining asosi bo'lib, u orqali badiiy asarlar inson ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan hamma narsani to'ldirishi mumkin. Davolovchi vazifasi badiiy adabiyot bolani ruhiy zo'riqishni oldini olishi, charchoqni yengillashtirishida yetakchi manba bo'lib hisoblanadi. Oilada ota-onalar, muassasalarda esa tarbiyachilar tomonidan o'qib berilgan she'r va hikoyalar

maktabgacha yoshdagi bolalardagi zo'riqishni va charchoqni unutishga, tanishtirilgan badiiy asardagi qahramonlarning ruhiy olamida biroz muddat sayr etishga majbur etadi. Darhaqiqat, badiiy asardan zavqlanish ko'ngilochar vazifa tufayli yuzaga keladi. Badiiy asar zavq-shavqni yetkazib berish, dam olish va o'yin-kulgi vositasi bo'lishi mumkin.

Badiiy adabiyotning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga zavq bag'ishlab, ularning barcha eng yuqori qobiliyat va kuchlarini faollashtiradi, uni ijodkorlikka undaydi. Bu badiiy adabiyotning ijodkorlik vazifasidir. Biroq, ijodiy faoliyat insonning boshqa odamlar bilan muloqotini, boshqalar uchun nimadir yaratish istagini o'z ichiga oladi. Bu yerda evristik (ijodkorlik) funksiyasi kommunikativ funksiya bilan kesishadi, buning natijasida badiiy adabiyot kattalar va bolalar, bolalar jamoasi o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Badiiy asarlar bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vosita vazifasini bajaradi. Mazmunga boy va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitida bolalarda og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalari rivojlanadi, Bolalar asar mazmunini tushunish uchun tarbiyachini tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob beradilar. Ular nutq, ayniqsa, o'qish va yozishni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarga ijobiy qaraydilar. Bu kompetensiya, shuningdek, badiiy asarlar orqali axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lim olish va rivojlanishda foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, yodda saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

XULOSALAR

Badiiy adabiyot orqali maktab ta'limiga nutqiy tayyorlanadi, dunyoqarashi kengayadi, eng muhimi bola shaxsini shakllantiriladi. Shu sababli ham tarbiyachi tanlagan badiiy asarlar kognitiv, estetik va axloqiy funksiyalarni bajarishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахимова Д. Халқ оғзаки ижоди намуналари воситасида мактабгача ёшдаги болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш тизимини такомиллаштириш. Пед. фан. док. Автореф., – Тошкент. 2020. – Б.6-74

2. Husanboyeva Q. Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasini. Darslik. –T.: "Innovatsuya-Ziyo", 2020. – B 358.
3. М.Х.Умарова. Теория и история педагогики. Учебное пособие. Издательско-полиграфический творческий дом имени. Чулпана. Ташкент, 2018. –С.10
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сон "Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.11.2020 й., 06/20/6108/1483-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.08.2021 й., 07/21/5234/0826-сон; 11.05.2022 й., 06/22/134/0407-сон.
5. *"Жаҳон адабиёти" журнали, 2013-йил, 3-сон*
6. И.Белинский В.Г., Чернышевский Н., Добролюбов Н.А. О детской литературе. М., Просвещение, - с. 8.
7. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психологический очерк. - 3-е изд., – М., Просвещение, 1991. – С. 93.
8. Запорожец А.В. Психология восприятия сказки ребенком-дошкольником. Д.в. 1948.№9. – С. 34-41.
9. Леонтьев А.Н. Ощущение, восприятие и внимание детей младшего школьного возраста. Сб. ст. Очерки психологии детей. АПН, 1950
10. Теплов Б.М. Психологические вопросы художественного воспитания. Изв. АПН РСФСР.М.,1947.Вып. 2. – С.144
11. Абдурахимова Д. Халқ оғзаки ижоди намуналари воситасида мактабгача ёшдаги болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш тизимини такомиллаштириш. Пед. фан. док. Автореф., – Тошкент. 2020. – Б.6-74
12. Ходжайев В.Х. Umumiy pedagogika. Pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik "Sano-standart" nashriyoti - Toshkent.: 2017. 416-b.
13. Maxmudova D.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning pedagogik mexanizmlari. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7214533>.